



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH
VA ISTE‘MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH QO‘MITASI**

000517

B U Y R U Q

Toshkent shahri

2023 yil “ 06 ” sentabr

127-ICH -son

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi markaziy apparatining tarkibiy tuzilmalari, hududiy organlari va idoraviy mansub tashkilotlari xodimlarini rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida

Qo‘mitaning 2023-yil II-yarim yilligiga mo‘ljallangan ish-rejasi ijrosini ta‘minlash maqsadida, **buyuraman:**

1. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi markaziy apparatining tarkibiy tuzilmalari, hududiy organlari va idoraviy mansub tashkilotlari xodimlarini rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Devonxona (Ikramova) mazkur buyruqni Qo‘mita markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy organlari va idoraviy mansub tashkilotlariga yuborilishini ta‘minlasin.

3. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

Rais

Sh. Sharaxmetov

**Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi markaziy apparatining tarkibiy tuzilmalari, hududiy organlari va idoraviy mansub tashkilotlari xodimlarini rag'batlantirish tartibi to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi markaziy apparatining tarkibiy tuzilmalari, hududiy organlari va idoraviy mansub tashkilotlari (*keyingi o'rinlarda – Qo'mita tizimi deb yuritiladi*) xodimlarini (*keyingi o'rinlarda – Qo'mita xodimlari deb yuritiladi*) rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Quyidagilar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirishning (*keyingi o'rinlarda - rag'batlantirish*) asosiy vazifalari hisoblanadi:

qo'mita tizimida korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

korrupsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta'minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

qo'mita xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash.

3. Rag'batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

4. Ushbu Nizom talablari qonunchilik hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida o'ttiz sutka mobaynida o'z ixtiyori bilan xabar bergan yoki korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni bevosita sodir etgan xodimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

5. Rag'batlantirish tashakkurnoma yoki qonunchilikda belgilangan boshqacha shaklda amalga oshiriladi.

2-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish asoslari

6. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lganda rag'batlantiriladi:

Xodimlar tomonidan pora talab qilgan shaxs haqida yoki o'zlariga ma'lum bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida Qo'mitaning Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limiga (*keyingi o'rinlarda – Bo'lim*

deb yuritiladi) va/yoki korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga bergan xabari asosida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi;

Qo'mita xodimi o'ziga nisbatan pora berishni taklif etgan yoki o'ziga ma'lum bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida bo'limga (*bo'lim esa qo'mita raisiga, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga*) va/yoki korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga (*korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarning xodimlari esa bevosita o'z rahbariga*) bergan xabari asosida huquqbuzarlik fosh etilishi.

7. Korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish va uni fosh etishda ahamiyatga ega bo'lgan dalillar haqida Qo'mitaga xabar berganlik uchun qo'mita xodimi tashakkurnoma bilan taqdirlanadi.

8. Qo'mita xodimi korrupsiyaga qarshi kurashishga munosib hissa qo'shganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq davlat mukofotiga ham tavsiya etilishi mumkin.

3-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish tartibi

9. Tashakkurnoma shaklida rag'batlantirish masalasi bevosita Qo'mita raisi tomonidan ko'rib chiqiladi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

10. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida ular haqidagi ma'lumotlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida oshkor etilishi mumkin.

12. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga ko'maklashgan xodimlar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarini himoya qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

13. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bilan bog'liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

14. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida yolg'on yoki uyushtirilgan xabar bergan xodimlar qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi.

15. Ushbu Nizom talablari buzilganligida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.